



ZAMONAVIY MEDIA MAYDONIDA SPORT SAYTLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Jienbaeva Gozzal

Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy media maydonida sport saytlarining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadbiq etiladi. Tadqiqot jarayonida raqamli texnologiyalar, internet kommunikatsiya vositalari va yangi media platformalarining sport axborotini ishlab chiqish hamda tarqatish jarayonlariga kórsatgan tásiiri tahlil qilinadi. Sport saytlarining kontent siyosati, janr va format xilma-xilligi, multimedia imkoniyatlaridan foydalanish darajasi, shuningdek , auditoriya bilan interaktiv munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari órganiladi.

Kalit sózlar: zamonaviy media maydoni, sport saytlari, raqamli jurnalistika, sport axboroti, kontent, multimedia, auditoriya bilan ózaro aloqa.

Zamonaviy media maydonining jadal rivojlanishi axborot tarqatish jarayonida tub ózgarishlarni yuzaga keltirdi. Raqamli texnologiyalar, internet platformalar va yangi media vositalarining keng joriy etilishi natijasida sport jurnalistikasi ham ananaviy shakldan interaktiv va multimediaviy kórinishga ega bóldi. Ayniqsa, sport saytlarining paydo bólishi va ommalashuvi sport axborotini tezkor, qulay hamda keng auditoriyaga yetkazish imkonini yaratdi. Bu jarayon sport mavzusidagi axborotning mazmuni, shakli va taqdim etilish usullariga bevosita tásir kórsatmoqda.

Bugungi kunda sport saytlari nafaqat yangiliklar manbai , balki tahliliy materiallar, statistik málumotlar, video lavhalar va jonli efirlar orqali auditoriya bilan doimiy muloqat olib boruvchi muhim media platformalarga aylandi. Media maydonida raqobatning kuchayishi sport saytlaridan tezkorlik, ishonchlilik va



innovatsion yondashuvni talab etmoqda. Shu jihatdan sport saytlarinig rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda órganish zamonaviy jurnalistika nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb masala hisoblanadi.

Sónigi paytlarda sport saytlarining rivojlanish tendensiyalari shu qadar keng va tezlik bilan ósmoqdaki, gohida bu tendensiya hatto saytlar qobiǵidan ham chiqib ketmoqda. Buni saytlar negizida tashkil etilayotgan sahifalar, bloglar va shaxsiy akkauntlar misolida kuzatish mumkin. Bugungi rivojlanish davrida faqatgina bitta sayt bilan auditoriyani tóliq qamrab olish va raqobatchilar táqibidan qutilib ketish , amri mahol. Sayt bu- katta platforma bólib, unda texnik yutuqlarning barcha jihatlari jam bólgan bólishi mumkin va bu uning tezkorligiga ham qaysidir mánoda óz tásirini ótkazishini unutmaslik kerak. Zamonning talabi esa- tezkorlik. Tez berilgan axborot har doim ham yutuq keltiravermaydi, agar unga qóshimcha tarzda sifat va aniqlik bólsa , ana shundagina axborot qimmatli bóladí. Axborotni bunday qimmatga faqatgina barcha texnik jihatlarni ózida jamlagan saytlar, platformalar berishi mumkin. Saytlar negizida tashkil etilgan sahifa va bloglar sódir bólgan yangilik haqida tezkorlik bilan xabar berishadi va axborotning tóliq va sifatli versiyasini saytda qoldirishadi. Aynan mana shu jihatlar bilan saytlarga kuzatuvchilar oqimi uzluksiz tarzda kirib turaveradi, har bir tashrif buyuruvchi esa say uchun qimmatli mijoz hisoblanadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy sport saytlarimiz bólgan Championat.uz hamda Stadion.uz saytlarining bugungi rivojlanish tendensiyalariga nazar tashlaydigan bólsak , oddiy yozuvchilikdan boshlangan sayt sahifalari bugungi kunga kelib ancha mukkamal málumot beruvchi saytlar sirasiga kirib borayotganini sezish qiyin emas.

Stadion.uz asosan futbol yangiliklariga yóntirilgan portal hisoblanadi. Saytda jahon, Yevropa va Ózbekiston futbol yangiliklari, videolar va statistikalar muntazam elon qilinadi. Shu bilan birga, portal boshqa sport turlariga ham etibor beradi, jumladan , boks, shaxmat haqida ham doimiy málumot beradi. Stadion.uz



foydalanuvchilarga turli turnirlar jadvali, natijalar va óyinlar bóyicha yakuniy málumotlarni taqdim etadi.

Asosiy sahifa top yangiliklar va bólimlar ketma-ketligidan iborat. Bólimlar orasida UEFA Chempionatlar ligasi, transferlar , videolar va boshqa sport yangiliklari mavjud. Interfeys yangiliklar róyxati tarzida kórsatilgan bólib, fotosuratlar va videolar bilan boyitilgan. Sayt dizayni oson navigatsiya imkoniyatini beradi, biroq bázan eski dizayn tufayli cheklangan funkcionallik kuzatiladi.

Stadion.uz sport muxlislari uchun qulay va tezkor yangiliklarni taqdim etadi. Portalning Telegram kanali orqali foydalanuvchilar yangiliklarni jonli ravishda qabul qilishadi . Shuningdek, statistikalar, transferlar va óyin sharhlari saytning asosiy kuchli tomonlari hisoblanadi. Biroq, bázan saytning HTML tuzilmasidagi eski elementlar foydalanuvchi tajribasiga salbiy tásir kórsatishi mumkin.

Chempionat.uz, kópincha Chempionat.asia nomi bilan tanilgan, Ózbekiston va Markaziy Osiyo futboli yangiliklarini taqdim etadi. Saytda milliy va xalqaro óyinlar, transferlar, intervyular va jamoa faoliyatiga oid maqolalar elon qilinadi. Shu bilan birga, Chempionat.uz jamoatchilik orasida katta auditoriyaga ega bólib, keng futbol qamrovini taqdim etadi.

Chempionat.uz saytida yangiliklar, jonli statistikalar, musobaqalar bólimlari mavjud. Intervyular, foto galeriyalar va filterlar orqali yangiliklar segmentatsiyalangan. Sayt dizayni keng struktura va multimedia imkoniyatlari bilan ajralib turadi, bu esa foydalanuvchilarga saytni qulay tarzda ishlatish imkonini beradi.

Chempionat.uz Ózbekiston sport auditoriyasi orasida mashhurdir. Sayt reklama bilan boyitilgan bólsa-da, kontent keng auditoriya uchun qulay tarzda taqdim etiladi. Bázi holatlarda sayt jamoatchilik fikriga salbiy tásir kórsatishi yoki ishonchlik masalalari yuzaga kelishi mumkin, ammo bu holatlar kam uchraydi.

Tez va sodda yangiliklar , statistikalar va videolar kerak bólsa, Stadion.uz foydalanuvchi uchun eng qulay variant hisoblanadi. Agar keng futbol qamrovi,



musobaqalar, intervyular va tahliliy maqolalar kerak bólsa, Chemponat.uz sayti afzalroqdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy media makonida sport mediasi jamiyat hayotida muhim kommunikativ va ijtimoiy institut sifatida shakllanib bormaqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi sport axborotining tayyorlanishi, tarqatilishi va istemol qilinish jarayonlarini tubdan ózgartirdi. Ananaviy ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda raqamli platformalarning kengayishi sport jurnalistikasining funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirdi.

Tadqiqot natijalari shuni kórsatadiki, sport mediasi bugingi kunda faqat sport musobaqalari va natijalarini yoritish bilan cheklanmay, balki tahliliy, tarbiyaviy va madaniy vazifalarni ham bajarib kelmoqda. Multimedia vositalari, interaktiv kontent va ijtimoiy tarmoqlar orqali sport axborotining auditoriyaga tásir doirasi kengaymoqda. Bu esa sport jurnalistikasida professional yondashuv, analitik tafakkur va axborot bilan ishlash madaniyatining muhim ahamiyat kasb etishini taqoza etadi.

Shu bilan birga, sport mediasining rivojlanishi bilan bog'liq muammolar ham mavjud bólib , xususan , axborotning yuzakilashuvi , tezkorlikka haddan tashqari urgú berilishi va ishonchsiz manbalardan foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish sport jurnalistikasida kasbiy standartlarga rioya qilish , ilmiy-tahliliy yondashuvni kuchaytirish va media savodxonlikni oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Umuman olganda, sport mediasining ilmiy jihatdan órganilishi uning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artikova Yu. Sport jurnalistikasi zamonaviy trend sifatida. Toshkent 2025
2. Artikova Yu. Sport jurnalistikasi. Toshkent 2016



3. Boborajabov E. Ózbekistonda sport saytlarining paydo bólishi va rivojlanish tendensiyalari. Toshkent 2024
4. Championat.asia [www.championat.asia] ([https:// championat.asia](https://championat.asia))
5. Stadion.uz [www.stadion.uz] (m.std.uz)